XALQ DEPUTATLARI QARSHI SHAHAR KENGASHINING

Q A R O R I

2026-yil 5-fevral VII-17-8-4-69-K/26 Qarshi shahar

Qarshi shahridagi geografik obyektlarga nom berish va ularni qayta nomlash to‘g‘risida

“Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6- va 24-moddalariga muvofiq, Geografik obyektlarga nom berish va ularni qayta nomlash to‘g‘risidagi takliflarni davlat ekspertizasidan o‘tkazish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligi Ekspert komissiyasining 2025-yil 07-noyabrdagi 05-19-19626-sonli yig‘ilish bayoni va xulosasini ko‘rib chiqib va “Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga asoslanib, Xalq deputatlari Qarshi shahar Kengashi

QAROR QILADI:

1. Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi kadastr agentligi, Geofrafik obyektlarga nom berish va ularni qayta nomlash to‘g‘risidagi takliflarni davlat ekspertizasidan o‘tkazish ekspert komissiyasining 2025-yil 07-noyabrdagi 05-19- 19626-sonli Ekspertiza xulosasi hamda shahar hokimining ma’naviyat va davlat tili masalalari bo‘yicha maslahatchisi J.Po‘latovning hisoboti ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligi ekspert komissiyasining 2025-yil 07-noyabrdagi 05-19-19626-sonli yig‘ilish bayoni va Davlat ekspertizasi xulosasiga asosan shahardagi jami 3 ta geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash bo‘yicha berilgan ekspertiza xulosasi O‘zbekiston Respublikasi “Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida”gi Qonunining 4-moddasiga muvofiq deb hisoblanganligi inobatga olinsin hamda ko‘chalarning nomlari mahallalar kesimida 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Shahar hokimligi axborot xizmati (U.Jabborov), shahar hokimining ma’naviyat va davlat tili masalalari bo‘yicha maslahatchisi J.Po‘latovning bilan birgalikda O‘zbekiston Respublikasi “Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida”gi hamda “Davlat tili to‘g‘risida”gi Qonunlari talablari asosida ushbu

olib borilgan ishlarni ommaviy axborot vositasi hamda ijtimoiy tarmoqlar orqali keng yoritib borish tavsiya etilsin.

4. Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari shahar Kengashining ijtimoiy soha, yoshlar siyosati, madaniyat va sport masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (E.Xasanova) hamda shahar hokimining ma′naviyat va davlat tili masalalari bo‘yicha maslahatchisi (J.Po‘latovning)lar zimmasiga yuklatilsin.

5. Mazkur qaror qabul qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

Kengash raisi **XALIMOV MURODULLA ZIYODULLAYEVICH**

Xalq deputatlari Qarshi shahar
Kengashining
2026-yil 5-fevraldagi
VII-17-8-4-69-K/26 -son qaroriga
1-ilova

Qarshi shahridagi geografik obyektlarga nom berish va ularni qayta nomlash to‘g‘risida

T/r	Geografik Obyektning turi	Geografik obyektning joylashuvi (X,Y)		Geografik obyektning bog'lanishi *(mahalla)*	Geografik obyektning amaldagi nomi	Viloyat komissiyasi tomonidan berilgan taklif	Hududiy komissiya tomonidan berilgan xaritaga ekspert komissiyasining izohi	Ekspert komissiyasining xulosasi
		Boshlang‘ich	Oxirgi					
1	Berk ko‘cha	69°15'43.894"E 40°56'12.424"N	69°15'49.364"E 40°56'24.145"N	Otchopar	Behbudiy	Sayxun	Xaritada geografik obyektning turi to‘g‘ri ko‘rsatilgan	Qonun xujjatlari talablariga muvofiq.
2	Ko‘cha	69°15'43.894"E 40°56'12.424"N	69°15'49.364"E 40°56'24.145"N	Otchopar	Nomsiz	Sayxun	Xaritada geografik obyektning turi to‘g‘ri ko‘rsatilgan	Qonun xujjatlari talablariga muvofiq.
3	Ko‘cha	69°15'47.650"E 40°56'21.235"N	69°15'54.172"E 40°56'19.147"N	Alisher Navoiy	Nomsiz	Mahmudxo‘ja Behbudiy	Xaritada geografik obyektning turi to‘g‘ri ko‘rsatilgan	Qonun xujjatlari talablariga muvofiq.